

# MORPHOLOGY IN UZBEK LANGUAGE CLASSES TRAINING OF AMONICS

Karabaev Azimjon Yakubjonovich

Teacher, Department of Uzbek Language and Literature

## ANNOTATION

The article is morphologically in Uzbek the process of teaching homonyms, their meanings, which word they are word formation, types of suffixes thought about. Among them are general secondary school teachers, Teachers of academic lyceums and universities can use it in Uzbek language lessons.

**Keywords:** homonyms, morphological homonyms, meaning of morphological forms, adjectives, form-forming, word-forming, adjective-forming, verb-without-form-forming, horse-forming, person-number, possessive.

O'zbek tilida grammatik shakldoshlar ikki turga bo'linadi: a) so'zlar shakldoshligi; b) qo'shimchalar shakldoshligi. Maqolada morfologik shakldoshlar - qo'shimchalar o'rtasidagi shakldoshlik haqida fikr yuritiladi. Masalan: to`kin (sifat yasovchi) dasturxon, ekin (ot yasovchi), ochin-to`qin (ravish yasovchi), ko`rin (lug'aviy shakl yasovchi) kabi.

Morfologik shakldoshlikda ko'makchi morfemalar (qo'shimchalar) o'rtasida shakliy tenglik hodisasi yuz beradi. Mazkur shakldoshlik bir tur qo'shimcha orasida ham, turli qo'shimcha orasida ham bo'lishi mumkin: **-ma** (fe`lning bo'lishsiz shaklini yasovchi: borma, kelma), (sifat yasovchi: ko'chma ma`no, qaynatma sho'rva), (ot yasovchi: boshqarma, cho'zma, suzma); **-ing** (egalik: kitobing, daftaring), (shaxs-son: boring, keling) kabi.

Qo'shimchalar shakldoshligi quyidagi turlarga bo'linadi:

**1. So'z yasovchi qo'shimchalar shakldoshligi:** **-ki I** (ot, turtki, tepki, ko'chki), **-ki II** (sifat, ichki, ustki); **-in I** (ot, ekin, yog'in), **-in II** (sifat, to'lin), **-in III** (ravish, yashirin, ochin-to'qin) kabi.

**2. Shakl yasovchi qo'shimchalar shakldoshligi:** - **(i)sh I** (har.n., borish, kelish, ketish), - **(i)sh II** (birg.nisb., kelishdi, borishdi), **-(i)sh III** (sifat, ko'kish), **-m I** (ot, egalik qosh-si), **-m II** (f., shaxs-son egalik qosh-si) kabi.

**3. So'z yasovchi va shakl yasovchi qo'shimchalar shakldoshligi:** **-m I** (so'z yas., ot), to'plam, chidam; **-m II** (ot, I shaxs birl., egalik, sintaktik shakl yas.) ukam; **-m III** (f., shaxs-son, 1 - shaxs birl., sintaktik shakl yas.) bordim kabi.

O'zbek tilida qo'shimchalar qo'shilishi bilan ham shakldoshlik yuzaga keladi. Quyida bir xil asos va bir xil affiksli shakldosh leksemalar haqida fikr yuritimiz:

**o'sma I** (o's+ma) ot, bu leksema o'smoq fe`lining II shaxs birlik, buyruq maylidagi shakli bo'lib, "katta bo'l" ma`nosidagi fe`lga **-ma** ot yasovchi qo'shimchani qo'shish bilan hosil qilingan. Mazkur shakldosh leksema quyidagi ma`nolarni anglatadi:

1) uzun, cho'zinchoq to'q yashil bargli, krestgullilar oilasiga mansub, ikki yillik o'tsimon o'simlik: ... uning hovlisida o'sma bahordagidek ko'karib yotardi. (S.Zunnunova)

2) shunday o'simlik bargidan siqib olinib, qosh va kipriklarni bo'yash uchun ishlatiladigan qora-yashilrangli suyuq bo'yoq: Uning hozirgina qo'ygan o'smasi chakkasiga oqib tushgan edi. (H.Nazir)

**o'sma II** (o's+ma) ot, odam yoki hayvonlar organizmida paydo bo'ladigan, odatda zararli shish ma`nosini anglatadi: Kasalning a`zosida o'sma paydo bo'libdi.

**o'sma III** (o's + lug'. shakl yas.) o'smoq fe`lining (II shaxs birlik, buyruq mayli) shakli. Bu fe`l so'zning asosida ifodalangan harakatning bajarilmasligini anglatadi: Gullarim yaxshi o'smayapti. (So'zl.)

**bosma I** (bos+ma -ot yasovchi) ot, balandga yuk ko'tarish uchun xizmat qiladigan qurilma: Loyni bosma bilan yuqoriga ko'tarib chiqardik.

**bosma II** (bos + ma - sif. yas.) sifat, bosmaxonada bosilgan, chop qilingan: Kutubxonamizda ko'plab bosma asarlarni o'qishingiz mumkin.

**yopiq I** (yop + iq + sif. yas.) sifat o'tish yoki kirish-chiqish joyi to'sib, bekitib qo'yilgan, berk: Kechasi ... Marg'ilon darvozalari yopiq bo'ladi. (A.Qod.)

**yopiq II**(yop+iq - ot yas.) ot, otning ustiga yopiladigan mato: Sayslar otlar ustidagi yopiqnlarni va to'qimnlarni, haligi tol daraxti ostiga yozganlar. (S.Ayniy)

**yorug' I** (yaru +q - ot yas.) ot so'z turkumi bo'lib, "yog'du", "nur". Yorug' leksemasi "yorug' holatga kel" ma`nosini anglatgan **yaru** fe`liga **q** ot yasovchi qo'shimchani qo'shish bilan hosil bo'lgan. O'zbek tilining keyingi taraqqiyot bosqichlarida **q** undoshi **g'** undoshiga, **a** unlisi **o** unlisiga almashgan: yaru+q, yaruq, yarug', yorug', yorug'.

**yorug' II** (yaru + q -sifat yas.) sifat, "nurli", "yoritilgan": Oyning o'n beshi qorong'u bo'lsa, o'n beshi yorug'. (Maqol)

**qiziq I** (qizi+q - ot yas.) ot, harakat ko'tarilgan, qizigan payt yoki holat: Hamma yoqda suv, hamma yoqda daraxt, -dedi O'ktam keng nafas olib, bu yerlarda saraton qizig'i ham bilinmasa kerak (Oybek).

Bu so'z o'zbek tilida "isib, kuydiradigan holatga yet" ma`nosini anglatuvchi **qizi** fe`liga + **q** ot yasovchi qo'shimchani qo'shish bilan yasalgan, keyinchalik unililarning qattqlik belgisi yo'qolgan: qizi + q qizi + q - qiziq.

**qiziq II** (qizi + q - sifat yas.) sifat, kishini ajablantiradigan, qiziqish uyg'otadigan: Paxta bayrami hech qayerda Mirzacho'ldagidek qiziq o'tmasa kerak. (A.Q.)

Xullas, shakldoshlik so'zlarning talaffuz jihatdan bir xilligi bo'lib, bu hodisa turli sabablar asosida sodir bo'ladi. Morfologik shakldoshlikda esa ayrim qo'shimchalar shakldosh bo'lib turli ma`no anglatadi. Birdan ortiq so'z yoki qo'shimchani bir xil talaffuz etilishi salbiy hodisa emas.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nurmonov A., Sobirov A., Qosimova N., va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning I, II, III bosqich talabalari uchun darslik. -Toshkent: Ilm ziyo. 2015, -B. 191
2. Nurmonov A., Shahobiddinova Sh., Iskandarova Sh., Nabiyeva D. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Morfologiya. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2001.
3. Rafiyev A., G'ulomova N. Ona tili va adabiyot. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. -Toshkent: "Sharq" nashriyot- matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2013.
4. Sayfullayeva R. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. -Toshkent: "Fan va texnologiya.2009.
5. To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyadova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi. (o'quv qo'llanma). - Toshkent: "Yangi asr avlodi". 2006.
6. G'ulomov A. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari. -Toshkent. 1992.
7. G'ulomov A., Ne'matov H. Ona tili Она тили таълими мазмуни. -Toshkent: "O'qituvchi", 1995.